

## МАТЕМАТИКАНИ CHUQURROQ O'RGANISHDA CHET TILINING AHAMIYATI

Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek qizi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada chet tilining matematika bilan aloqadorligi va bu fanni o'rganishda xorijiy tilning qanchalik muhim ekanligi bilan tanishasiz. Ko'plab davrlardan buyon matematikaning rivojlanib borishi va bunda chet tilining o'rni qanchalik katta ekanligi sir emas. Negaki, biz algebra va geometriyanini o'rganish pog'onasida xorijiy tildagi terminlarni ham chuqurroq o'rganib boramiz.*

**Abstract:** *In this article, you will learn about the connection of a foreign language with mathematics and how important a foreign language is in learning this subject. It is no secret that mathematics has been developing for many years and how important a foreign language is in this. After all, at the stage of learning algebra and geometry, we also study foreign language terms in depth.*

**Аннотация:** *В этой статье вы узнаете о связи иностранного языка с математикой и о том, насколько важен иностранный язык в изучении этого предмета. Ни для кого не секрет, что математика развивается уже много лет и насколько важен в этом иностранный язык. Ведь на этапе изучения алгебры и геометрии мы также углубленно изучаем иностранные языковые термины.*

**Kalit so'zlar:** *algoritm, matematika, Al-Xorazmiy, uyg'onish davri, matematik belgilar.*

**Key words:** *algorithm, mathematics, Al-Khorazmi, renaissance period, mathematical symbols*

**Ключевые слова:** *алгоритм, математика, Аль-Хорезми, период Возрождения, математические символы.*

Hammamizda birinchi navbatda savol tug'ilishi mukiin: xorijiy tilning matematikaga qanday bog'liqligi bor? Hech kimga sir emaski, matematika qadimdan rivojlanib turli tillarda o'qitib kelingan. Ya'ni arab, fors, hind, yunon kabi har bir millat o'z avlodlariga bu fanni o'qitishgan. Matematika juda qadimiy fanlardan biri bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida „matematika nima?“ degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan. Masalan, Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX—XIII asrga kelib matematika tushunchasi algebra deb kengaytirilgan.

Matematikani rivojlantirishga o'zining juda katta hissasini qo'shgan olimlardan biri bu, hech shubhasiz, Al-Xorazmiydir.

Al-Xorazmiy birinchi navbatda buyuk matematik sifatida namoyon bo'ldi. U o'zigacha butun sharq ilm-fani to'plagan matematik bilimni umumlashtirib, uni o'zining natijalari bilan boyitib bordi va fanda mutlaqo yangi soha — algebraga asos soldi. Al-Xorazmiygacha bo'lgan davrda faqat eng sodda algebraik tenglamalargina o'rganilar, masalalarni alohida tenglama sifatida qaralar va ular orasidagi qonuniyatlar nazardan chetda qolar edi. Al-Xorazmiy tarixda ilk bora har qanday chiziqli va kvadrat tenglamalar uchun tatbiq etish mumkin bo'lgan algebraik usul va formulalarni ishlab chiqdi, ularni tasnifladi hamda aniq ta'rifini keltirdi. Aynan al-Xorazmiydan boshlab matematikada ramziy harfiy ifodalash joriy etildi va uning mutlaqo yangi sohasi — algebra mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Uning asarlari keyingi davrda Yevropada lotin tiliga o'girildi va Uyg'onish davri Yevropa ilm-fani rivojiga ulkan ta'sir o'tkazdi.

Hozirgi davrga kelib xorijiy tillarni o'rganish va hisob-kitobni chuqur bilish hayotning asosiy talablaridan bo'lib qolmoqda va shu sababli matematikani chet tilida o'qishga ixtisoslashtirilgan ko'plab maktablar faoliyat yuritmoqda.

Keling aksariyat matematik terminlarning fransuzcha va inglizcha nomlanishini ko'rib chiqamiz.

Fransuzcha:

abscisse -absissa (nuqtaning tekislikdagi yoki fazodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri).

accolade-katta qavs (bir necha qatorni birlashtirishga xizmat qiladigan belgi).

addition-qo'shish

angle-burchak

côté- tomon, taraf

divise par- bo'lish

egale - tenglik

Inglizcha:

Mathematics- matematika

add-qo'shish

being - bo'lish

Increase- ko'paytirish

equality- tenglik

subtract- ayirish

Biz hozirgi vaqtda foydalanayotgan raqamlar aslida Xorazmiy tomonidan yaratilgan hind raqamlaridir. Keyinchalik ular arab raqamlariga aylangan va butun dunyo foydalana oladigan raqamlar bo'lib qolgan. Keling ungacha foydalanilgan rim raqamlari bilan farqlaymiz:

- I - 1 - bir
- II - 2 - ikki
- III - 3 - uch
- IV - 4 - to'rt
- V - 5 - besh
- VI - 6 - olti
- VII - 7 - yetti
- VIII - 8 - sakkiz
- IX - 9 - to'qqiz
- X - 10 - o'n
- XL - 40 - qirq
- L - 50 - ellik
- XC - 90 - to'qson
- C - 100 - yuz
- CC - 200 - ikki yuz
- CD - 400 - to'rt yuz
- D - 500 - besh yuz
- M - 1000 - ming

Xulasa qilib aytganda, har bir shaxsda hayotda tug'ilib o'sish davrida bilim olish ko'nikmalari rivojlanib boradi. Ammo bu kimdadir vaqtliroq, kimdadir esa kechroq boshlanadi. Hammaning o'z iste'dodi, o'z qiziqishi bo'ladi, bu qiziqishni rivojlantirish hammaning o'z qo'lida. Shuning uchun, o'z-o'zimizga motivatsiya bergan holda yo'limizda davom etishimiz va buyuk olimlarimizga munosib avlod bo'lishimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matematika tarixi. A.Normatov
2. Matematika tarixi.(2016) A.Abduraxmonov
3. SamDCHT.uz
4. Elektron darsliklar: <https://arm.samdchti.uz/library/catalog/eletron>